

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/5 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабиевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Ulashova Sevinch Ulash qizi</i> CHIG'ATOY ULUSI BOSHQARUVI TARIXIDAN	8-13
<i>Gulmatov Umarali Xabibulla o'g'li</i> "XITOIY-O'ZBEKISTON-QIRG'IZISTON" TRANSPORT YO'LAGI TASHKIL ETILISHIDA O'ZBEKISTON ISHTIROKINING TARIXIY AHAMIYATI	14-18
<i>Dexkanov Narimon Burxonjonovich</i> ISMOIL SOMONIYNING BOSHQARUV TIZIMI VA QO'SHIN ISLOHOTI	19-22
<i>Saparbayeva Aziza Asror qizi</i> SURXONDARYO HUDUDINING BRONZA DAVRI MANZILGOHLARIDAN ANIQLANGAN ZARGARLIK BUYUMLARI TIPOLOGIYASI	23-28

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Muradullayeva Nafisa Dilmurad qizi</i> XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYALARI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	29-34
<i>Utkirov Anvar Utkirovich</i> KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIVERGENTSIYANI TIZIMLI TASHKIL ETISH TENDENSIYALARI	35-44

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Madraximov Jahongir Botirjon o'g'li</i> GLOBALLASHUV JARAYONLARINING YOSHLAR MA'NAVIY HAYOTIGA TA'SIRINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	45-52
<i>Rahmonova Feruza Bahromjon qizi</i> XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH – TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKLARDAN ASRASHNING SAMARALI YO'LI SIFATIDA	53-58
<i>Aripova Zulfiyaxon Salijanovna</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA FALSAFIY FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI	59-64

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Nishonova Xurshida Yusufjanovna</i> SHE'RIYATDA OBRAZ MUAMMOSI	65-73
<i>Hikmatova Nigina Akmalovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA AGORONIMLARNING ONOMASTIK KATEGORIYA SIFATIDAGI MILLIY-LISONIY BELGILARI	74-79
<i>Sultanova Xurshida Uktamjanovna</i> PUBLITSISTIK USLUB VA UNING TADQIQI (XURSHID DAVRON IJODI MISOLIDA)	80-86

<i>Asqarova Dilbarxon Asqarjon qizi</i> XRONOLOGIYA VA IJOD: INGLIZ VA O'ZBEK MA'RIFIY DRAMALARINI QIYOSIY O'RGANISH	87-91
--	-------

<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna, Mahmudova Nargiza Alimovna</i> J. FAULZNING "KOLLEKSIONER" ROMANIDA RIVOYAT USULLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	92-96
---	-------

<i>Miraxmedova Zilola Erkinovna</i> EVFEMIYA TIL FENOMENI. EVFEMIZMNI O'RGANISH TARIXI	97-101
---	--------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Абдуолимов Уринбой Худобердиевич</i> ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ ВА УНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ	102-110
--	---------

<i>Алишаев Собир Турсунбоевич</i> СУД ҲУҚМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИДА СУД МАЖЛИСИ БАЁННОМАСИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ ВА ИСБОТЛОВЧИ ФУНКЦИЯЛАРИ	111-119
---	---------

<i>Muhammadiyev Bahromjon Qodirjon o'g'li</i> OTALIKNI FAKTINI BELGILASH ISHI (BOTIR QODIROV VA JO'RAYEVLAR OILASI MISOLIDA)	120-124
--	---------

<i>Maxmudova Hurmatxon Muxtorovna</i> KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI TAHLILI: QONUNCHILIK VA AMALIYOT	125-135
--	---------

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Rashidova Oynisa Xusniddin qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH	136-140
--	---------

<i>Bakiyeva Xayotxon Abduganiyevna, Ergasheva Roziya Bahodir qizi</i> DARSLARDA ZAMONAVIY TA'LIM USULLARIDAN FOYDALANISH	141-146
---	---------

<i>Ганнаров Захид Ганнарович</i> ИССЛЕДОВАНИЕ НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ СИНХРОНИЗАЦИИ ДВИЖЕНИЙ В СИНХРОННОМ ПЛАВАНИИ	147-153
---	---------

<i>Qurbonova Dilafruz Toshturdiyevna</i> TALABA-QIZLARGA TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSI ASOSIDA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULI	154-159
---	---------

09.00.00-FALSAFA FANLARI – PHILOSOPHICAL SCIENCES**Received:** 10 July 2024**Accepted:** 15 July 2024**Published:** 25 July 2024*Article / Original Paper***THE MAIN DIRECTIONS OF THE INFLUENCE OF GLOBALIZATION PROCESSES ON THE SPIRITUAL LIFE OF YOUNG PEOPLE AND THEIR CHARACTERISTICS****Madraakhimov Jahongir Botirjon ugli**

Namangan State University, Faculty of Law, 3rd year student of National idea, spiritual foundations and legal education

E-mail: madraakhimovjakhongir@gmail.com

Abstract. This article analyzes the impact of globalization processes on the spiritual life of young people and its main trends and features. The influence of globalization on the development of youth spirituality and morals is explained on a scientific basis. The positive and negative effects of globalization on youth spirituality through the Internet, social networks, mass media, intercultural relations and global culture are considered. Recommendations were also given on ways to preserve national spirituality and combat the negative effects of globalization.

Key words: globalization, youth, spiritual life, moral education, internet, culture, technologies, social network, mass media, modern spirituality, global culture.

GLOBALLASHUV JARAYONLARINING YOSHLAR MA'NAVIY HAYOTIGA TA'SIRINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI**Madraximov Jahongir Botirjon o'g'li**

Namangan davlat universiteti, Yuridik fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv jarayonlarining yoshlar ma'naviy hayotiga ta'siri va uning asosiy yo'nalishlari va xususiyatlari tahlil qilinadi. Globallashuvning yoshlar ma'naviyati va axloqi rivojlanishiga ta'siri ilmiy asosda yoritilgan. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari, madaniyatlararo aloqalar va global madaniyat orqali globallashuvning yoshlar ma'naviyatiga ijobiy va salbiy ta'sirlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, milliy ma'naviyatni saqlash va globallashuvning salbiy ta'sirlariga qarshi kurashish usullari bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, yoshlar, ma'naviy hayot, axloqiy tarbiya, internet, madaniyat, texnologiyalar, ijtimoiy tarmoq, ommaviy axborot vositalari, zamonaviy ma'naviyat, global madaniyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI5Y2024N07>

Kirish. Globallashuv jarayoni bugungi kunda barcha sohalarga, jumladan, yoshlar ma'naviy hayotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Yoshlar dunyoqarashi, ma'naviyati va axloqiy tamoyillari globallashuv jarayonida shakllanmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha, "...globallashuv jarayonlari hamda odamlar, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurash kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda harbiy-

vatanparvarlik tarbiyasining o'рни va ahamiyati tobora ortib bormoqda.”[1]. Ushbu maqolada globallashuv jarayonlarining yoshlar ma'naviy hayotiga ta'siri va uning asosiy yo'nalishlari va xususiyatlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maqolada adabiyotlar tahlili va zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Asosiy e'tibor yoshlar ma'naviy hayoti va globallashuv jarayonlariga qaratildi. Internet ma'lumotlari, ma'naviy-ma'rifiy tadqiqotlarga asoslanib, globallashuvning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri tahlil qilindi. Keltirilgan ma'lumotlarga muhim dalillar bilan bog'liq misollar keltirilgan.

Natijalar. Ma'lumki, so'nggi yillarda globallashuv turli-tuman qarashlar asosida, deyarli barcha ijtimoiy hodisalar bilan bog'liq ravishda talqin etilayotgan muammolardan biriga aylandi. Shunday bo'lsa-da, murakkab va serqirra xarakterga ega ushbu fenomenning mohiyati xususida yaxlit ilmiy yondashuv, nuqtayi nazar shakllangan emas.

“Global” fransuzcha “global” degan so'zdan kelib chiqqan bo'lib, “umumga oid”, “umumga taalluqli”, “umum bilan bog'liq” ma'nolarini anglatadi. Etimologik nuqtayi nazardan “global” so'zi lotincha “globus” ya'ni “shar” so'zidan kelib chiqqan. Globus deganda yer shari nazarda tutiladi. Mazkur yondashuvni ilk bor Aristotel qo'llagan.[2; 17-b]

Zamonaviy dunyoda jamiyatlar rivojlanishini globallashuv jarayonlarining insonlar tafakkuri, ma'naviyati va ijtimoiy xulq-atvoriga ta'sirisiz tasavvur qilish qiyin. Insoniyatning kelajak taraqqiyoti globallashuv sharoitida shaxsning ijtimoiy ongi, maqsadlari, qadriyatlar, hayotiy tushunchalari, dunyoqarashi va jamiyat bilan munosabatlaridagi o'zgarishlarga bog'liq. Shu bois, ijtimoiy va gumanitar fanlar globallashuvning jamiyat hayotining nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy, balki madaniy hamda mafkuraviy jabhalariga ta'sirini o'rganishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu jarayonlar insonning fikrlash tarzi va qadriyatlar tizimiga chuqur ta'sir ko'rsatib, jamiyat rivojlanishining yangi yo'nalishlarini belgilamoqda.

Globallashuvning inson va postindustrial jamiyatlar hayotidagi o'рни hamda roli haqidagi alohida qarashlar shakllanmoqda. Biroq bu jarayonlarning inson tafakkuri va ma'naviy dunyosiga ta'siri masalasiga yetarli darajada e'tibor berilmagan.

Vaholanki, g'oyalar globallashuvi uzoq tarixga ega murakkab jarayondir. Globallashuv faqat XX asr oxirida boshlanmagan. Tadqiqotchilar so'nggi 500 yil davomida insoniyat bu yo'nalishda izchil harakat qilganini ta'kidlashmoqda. Yangi dunyoning kashf etilishi, Yer yuzining muntazam transport yo'llari bilan bog'lanishi, migratsiya oqimlarining kuchayishi, axborot texnologiyalarining rivojlanishi kabi hodisalar shakllanayotgan globallashuvning bosqichlari edi. O'tgan asrning so'ngida bu jarayon misli ko'rilmagan tezlikda jadallashdi va globallashuv davri deb nom oldi. Bu davr insoniyat tarixida yangi bosqichni boshlab berdi, dunyo miqyosida g'oyalar, madaniyatlar va texnologiyalarning tez almashinuviga olib keldi.

Eng avvalo, ushbu muammo xususida gap ketganda, shuni ta'kidlash kerakki, “Globallashuv jarayonining tobora shiddatli tus olishi nafaqat insoniyat imkoniyatlarini kengaytirmoqda, balki ziddiyatlarning keskinlashuvi, rivojlangan va qoloq davlatlar o'rtasidagi tafovutning o'sishiga olib kelmoqda. Buning oqibatida tinchlik va barqarorlikka raxna solayotgan, mohiyati va ko'lamiga ko'ra transmilliy xususiyatga ega turli xatti-harakatlar sodir etilmoqda.” [3; 33-b].

Endilikda jahonning chekka o'lkalari yoki xilvat burchaklari mavjud emas. Barcha mintaqalar jahon iqtisodiyoti va yagona axborot maydonining tarkibiy qismlariga

aylanmoqda. Hududlar va masofalar o'zining asl ma'nosini yo'qotadigan chegarasiz dunyo tushunchasi real shakl-shamoyil kasb etib bormoqda.

Zero, bu borada O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.Mirziyoyev: "globallashuv hodisasining o'zi alohida mavzuga aylandi va bu haqda alohida globalistika fani shakllandi. Global jarayonlar va muammolarning paydo bo'lish tarixi, bugungi xususiyatlari va darajalari, milliy hamda umuminsoniy jihatlari bilan bog'liq masalalarga e'tibor ortib bormoqda.",[4; 377-b] - deb ta'kidlaydi.

Tadqiqotlarda globallashuv jarayoniga siyosiy, iqtisodiy va demografik jarayonlariga urg'u berilganini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, globallashuv axborot texnologiyalarining mislsiz takomillashuvining natijasidir. Globallashuv o'zining keltirib chiqarayotgan oqibatlariga ko'ra, ijobiy va salbiy jarayon sifatida baholanadi.

L.E.Grinin globallashuv haqida shunday yozadi: "Globallashuv mintaqalar va umuman jahonning integratsiyasi va yaqinlashuvining natijasidir. Globallashuv – bu jarayon, uning natijasida dunyo o'zining barcha subyektlariga yanada aloqador va yana ham bog'liq bo'ladi" [5; 8-b].

Bundan tashqari, "...globallashuv deganda asosan umuminsoniy ahamiyatga ega muammolarni tushunish keng tarqalgan. Bunday tushunish bir yoqlama bo'lib, uning tub mohiyatini ochib bera olmaydi va globallashuv, bir tomondan, muayyan hodisa, jarayonning barcha mintaqalar, davlatlar va butun Yer yuzini qamrab olganini, ikkinchi tomondan, ularning insoniyat taqdiriga daxldor ekanini anglatadi" [6; 64-b].

Globallashuvning mohiyatiga salbiy xususiyatlarning xos ekani to'g'risidagi fikrlar mavjud. Zero, ularda ham mazkur fenomenning muayyan qirralari aks etadi. Globallashuv texnika taraqqiyotining hosilasi sifatida sivilizatsiya rivojlanishidagi yangi sifat bosqichini ifodalaydi. Ayni paytda ular tomonidan globallashuv sharoitida intellektual resurslar va yuqori texnologiyalarning globallashuv liderlari bo'lgan bir necha mamlakatlar doirasidagina to'plangani uchun uning nisbiy yopiq xarakterga ega ekaniga alohida urg'u berilganini ta'kidlash joiz" [7; 87-b].

Hozirgi davrda xalqaro makonda ko'p tarmoqli integratsiya, hamkorlik aloqalarning kengayishi, global ahamiyatga molik yangi umuminsoniy g'oyalarning paydo bo'lishi va ularni targ'ibot-tashviqot qilish texnologiyalarining takomillashuvi kabi omillar globallashuvning asosiy sabablari sifatida nazariy jihatdan asoslanmoqda [8; 190-b].

Globallashuvning salbiy jihatlarini xarakterlovchi asosiy omil sifatida "ommaviy madaniyat" elementlarining keng tarqalib borayotganini misol keltirish mumkin. Ba'zi respublikamiz olimlarimiz nuqtayi nazariga ko'ra, globallashuv sharoitida milliy g'oyaga zid, ma'naviy qadriyatlarimizga putur yetkazadigan tashqi ta'sirlar asosan "ommaviy madaniyat"ni tarqatishga bo'lgan intilishlar hosilasidir [9; 144-b]. Globallashuv tezkor va shiddatli tashqi ta'sirlar davri bo'lishi bilan birga, muntazam ravishda tizimli olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy, profilaktika va targ'ibot-tashviqot jarayonini ifoda etadi. B.Umarov, Sh.Jabborovlarning fikricha, globallashuvning ma'naviyatga salbiy ta'sirini bartaraf etish, ayniqsa, g'oyalar kurashi davrida yoshlar dunyoqarashining to'g'ri shakllanishini ta'minlash uchun milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz tizimidagi barcha tarbiya elementlaridan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yishimiz zarur [10; 47-b].

"Globalizm - milliy hayotga tahdid demakdir", - deb yozadi siyosatshunos Olim Toshboev.[11; 20-b] Bu fikrga rossiyalik faylasuf va yozuvchi A.Zinovevning fikri mos keladi

u “Globallashuv yangi jahon urushidir. U yangi tipdagi jahon urushi. Bu urushda tirik qolishning, qarshilik ko‘rsatishdan boshqa yo‘lini ko‘rmayapman. Faqat qarshilik”, [12; 82-b] - deb ta’kidlaydi.

Albatta, bu biroz munozarali g‘oya. Chunki globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman degan mamlakatlar uning ta’siriga ko‘proq uchrab qolishi mumkin. Bunday g‘ayriixtiyoriy ta’sir esa ko‘pincha salbiy oqibatlariga olib kelmoqda. Globallashuvni faqat salbiy hodisa sifatida baholash va unga qarshi turish ijtimoiy hayotdagi turli tabiiy, ijtimoiy bog‘liqliklarni inkor etishga olib kelishi mumkin. Globallashuv jarayoni mafkuralashishdan, uning maqsadlaridan xoli bo‘lishi kerak. Globallashuv, eng avvalo, milliy g‘oyani qattiq sinovdan o‘tkazadi, so‘ng uni obdon chiniqtirib, toblaydi. Bordi-yu mafkuraviy immunitet susayib zaiflashsa, milliy g‘oya globallashuv jarayonining qurboniga aylanadi. Bu borada Respublikamiz Prezidenti SH.Mirziyoyev: “...globallashuv va axborot xurujlari, turli buzg‘unchi g‘oyalar ta’sirida milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarimizga qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchaymoqda. Xudbinlik, ya’ni, faqat o‘zini o‘ylash, hayotga, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste’molchilik kayfiyati singari illatlar turli yo‘llar bilan aholi, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirilmoqda, [13; 268-b] — deb ta’kidlaydi.

Demak, yoshlarimiz ma’naviyatida g‘oyaga qarshi tura oladigan kuchli milliy g‘oya bo‘lishi kerak. O‘zbekistonda chiqarilayotgan kitoblar, jurnallar va gazetalarini sotib oluvchilar soni rus, ingliz va boshqa tillarda chiqarilayotgan kitoblarni sotib oluvchilarga qaraganda 5-6 marta kam. Eng xarakterli jihati shundaki, aholi, ayniqsa yoshlar sotib olayotgan rus va xorijiy tillardagi kitoblar, jurnallar va gazetalar milliy nashrlarimizdan bir necha barobar, qimmat turishiga qaramasdan ularni sotib olmoqdamiz. Demak, xalqimizning, ayniqsa, yoshlarning ma’naviy ehtiyojlari yetarlicha qondirilmayapti. Bu esa xorij g‘oyalarining bemalol kirib kelishiga imkoniyat yaratmoqda. Lekin, hukumatimiz tomonidan yoshlarni kitob o‘qishga jalb qilish maqsadida “Yosh kitobxon” va shunga o‘xshash ma’naviy-ma’rifiy tadbir va tanlovlar o‘tkazib kelinmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-noyabrdagi PQ-380-sonli “Yoshlar uchun ming kitob” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [14] gi qarori yoshlarimizning ma’naviy kamoloti va intellektual salohiyatini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Bugungi globallashuv sharoitida O‘zbekistonga tashqaridan ijobiy g‘oyalar bilan birgalikda yashash turmush tarzimizga, yoshlar ma’naviyatiga zid bo‘lgan turli xil yot va zararli g‘oyalar kirib kelmoqda. Aynan milliy g‘oya bugungi globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni toza havo bilan ta’minlab, ayni paytda “dovullar”dan saqlash omili ekanligini anglash muhim. Shuning uchun ham globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni “dovullar”dan saqlash, o‘zligimizni tahdidlardan himoya qilish uchun milliy g‘oyadan muhimroq va kuchliroq vosita yo‘q. Chunki Milliy g‘oyaning muhim vazifasi inson ongida nafaqat bilim va tasavvur, balki ishonch va e’tiqod sifatida shakllanishidir. Globallashuv sharoitida xalqlarni mafkuraviy jihatdan bo‘ysundirish va dunyoni shu asosda bo‘lib olishga urinishlar davom etmoqda. Bu maqsadda zamonaviy OAV, ularning yutuqlari hamda turli markazlar, shuningdek, o‘zaro hamkorlikka yo‘naltirilgan ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy vositalardan foydalanib, dunyoning turli hududlarida o‘zlariga mos mafkuraviy muhitni shakllantirish ko‘zlanmoqda.

Bunday vaziyatda milliy istiqlol g‘oyasiga tayanish orqaligina mafkuraviy maydonlardagi kurashlar mohiyatini to‘g‘ri anglash va yot g‘oyalarga qarshi kurashish

mumkin. Global muammolarni hal etish uchun yoshlarning ongi, dunyoqarashi va ma'naviyatini o'zgartirish lozim. Eng muhimi, har bir davlat o'z yosh avlodini salbiy g'oyalardan himoya qilishi, ya'ni ma'naviy xavfsizligini ta'minlashi zarur.

Mintaqamizda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash zarurati, jumladan, xorijdan kirib kelayotgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan sarmoyalar, zamonaviy texnologiyalar va bozorni shakllantirish usullari bilan birga chet el madaniyati, turmush tarzi va dunyoqarashining kirib kelishi bilan bog'liq. Bu tabiiy jarayon bo'lib, uni to'xtatib bo'lmaydi. Shu bois, so'nggi paytlarda hududimizga ayrim noxush mahsulotlar kirib, keng tarqala boshladi. Bu holat milliy qadriyatlarimiz va ma'naviyatimizni asrash, yoshlarni zararli ta'sirlardan himoya qilish masalasini yanada dolzarb qilmoqda. Bu mahsulotlar "ommaviy" madaniyat ta'siri ostida shakllangan tasavvur va madaniy "to'liqlanishni" o'zida mujassamlashtirgan, o'z "jozibadorligi", ko'p yillar davomida "mumkin bo'lmagan" mavzularni o'zida aks ettirganligi bilan ayrim yoshlarimizni o'ziga rom etmoqda. Yoshlar orasida sochi "olinganlar"ga, skxinderlarga va chet el qo'pol metallistlariga ixlos qo'yanlar uchramoqda.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Fidokor" gazetasi muxbirining savollariga bergan javoblarida bu masalaga alohida to'xtalib, afsus bilan inson tabiatidagi insoniylikdan ko'ra vahshiylik, ur-yiqit instinktlarni, ya'ni xatti-harakatlarni qo'zg'atib yuborish osonroqligini ta'kidlab o'tdilar. Ongi shakllanib ulgurmagan aksariyat yoshlar bunday ta'sir ostiga kirib bormoqdalar, bundan esa ular shafqatsizlikni o'rganadilar, xolos. Natijada, ularning diydasi qotadi, qalbidan toshbag'irlik, zo'ravonlik, axloqsizlik kabi illatlar joy olganini o'zi ham sezmay qoladi.

Mamlakatimiz yoshlarini bunday ta'sirdan ma'muriy yo'l bilan, qonun chiqarib ham to'xtatib bo'lmaydi va u davlatimiz, xalqimiz, yoshlar tarbiyasi va dunyoqarashiga ta'sir etib, katta xavfni o'zida mujassamlashtiradi. Shuni alohida aytish kerakki, g'arazli kirdikorlarini amalga oshirish maqsadida izg'ib yurgan kimsalar targ'ibot ishlarini qaysi yo'l bilan bo'lmasin olib borishga urinyaptilar.

Masalaning ikkinchi tomoni, afsuski, hozirgi kunda ham oramizda ma'nan qashshoq, dunyoqarashi tor, o'zini-o'zi o'ylaydigan odamlar uchrab turishidadir. Aynan shunday kimsalar narkotik mahsulotlariga bo'lgan talab bozorini vujudga keltiradilar. Xorijiy mamlakatlar hayotiga ko'r-ko'rona, bemorlarcha havas qilayotgan yoshlar ham uchramoqda. Turli yo'nalishdagi harakatlar, ommaviy madaniyat ta'siri ostida shakllangan karashlar bugungi kunda bizning o'lkamizga ham kirib kelmoqda va o'z salbiy ta'sirini yoshlarimizga ko'rsatishi mumkin. Ularni oldini olish, yoshlarimiz ongining zaharlanishiga yo'l qo'ymaslik muhim ahamiyatga ega.

Fikrimizcha, ma'naviy xavfsizlik masalasi inson borlig'ining ijtimoiy xavfsizligi masalasi bilan birgalikda qurilishi lozim. Ma'naviy xavfsizlik konsepsiyasi esa inson huquqlarining konsepsiyasi bilan bog'liq holda qurilishi kerak. Alohida va xususiy xarakterga ega bo'lgan mafkuraviy, ma'naviy tahdid va tajovuzlarning oldini olish nafaqat zarur, balki uni amalga oshirish ham muhim.

Ma'naviy va mafkuraviy tahdid obyekt hamda subyektning ijtimoiy o'zaro ta'siri oqibatida vujudga keladi hamda madaniy va ijtimoiy asoslarning yagona ijtimoiy turdagi to'qnashuvi asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bugungi kunda ma'naviyatni

himoyalash hamda yot, begona, beqarorlashtiruvchi ma'naviyatdan himoyalaniish masalasi dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Global mafkuraviy tahdid va tajovuzning xavfi - ularning mamlakatimizga kirib borishidagi yo'llarining deyarli ochiqqligidadir. Axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanib borayotganligi, yo'ldosh aloqalarining katta imkoniyatlari mazkur muammoni yanada chigallashishiga olib kelmoqda.

Yoshlarda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash zaruriyatining bir necha sabablari bor. Bular qatorida:

- yangi tashkil topgan yosh suveren davlatlarni yana eski usuldagi "yaxlit mamlakat" tarkibiga qaytarish;

- xalqlarning milliy ongi va milliy o'z-o'zini anglashlarining shakllanishiga tajovuz qilish;

- mavjud tabiiy qiyinchiliklardan foydalanib, davlat barqarorligini beqarorlashtirish, xalqimiz imon va e'tiqodini oyoq osti qilib, yagona Islom davlatini qurish maqsadida harakat qilayotgan turli siyosiy, diniy, ekstremistik kuchlar mavjudligini ta'kidlash lozim.

Ana shunday tahdidlarning oldini olish yo'lida O'zbekistonda, eng avvalo, **mafkuraviy xavfsizlikni** ta'minlash lozim. Ekstremistik, diniy, siyosiy va boshqa kuchlar fuqarolar, ayniqsa yoshlar ongini noto'g'ri fikr, g'oya, qarashlar bilan chalg'itishga urinishlari mumkin. Bu esa davlat barqarorligini beqarorlashtirishga, fuqarolarni muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy vazifalarni bajarishdan chalg'itishga olib kelishi tabiiydir.

Demak, biz ma'naviyat sohasidagi g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymasligimiz lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev "Ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi videoselektorda bu haqda shunday fikrni bildirganlar: "...Turli yot oqimlarga qo'shilib, ular tarafida bo'lish O'zbekiston fuqarosiga umuman to'g'ri kelmaydi. Xalqimiz orasida sog'lom muhit bo'lishi kimdan so'raladi? Albatta imom-xatiblardan. Sizlar insonlar miyasida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lmasligiga harakat qilishingiz zarur. Bir yosh yigitning yo'ldan adashishi nafaqat bitta oilaning, balki butun yurtning kulfatidir. Mahallalardagi DEOga qo'shilib qolgan yoshlarni bu yo'ldan qaytarish imom-xatiblar vazifasidir" [15]. Yuqoridagi fikrlardan yoshlarimizni yo'ldan adashmasliklari uchun barchamiz birdek mas'ul ekanligimizni teran anglashimiz zarur.

Istiqlol mafkuramiz o'zida yoshlarda halol va pok hayot kechirish, beva-bechoralarga, qarovsiz qolgan bolalarga, yetim-yesirlarga yordam berish, ularga nisbatan diqqat va e'tiborda bo'lish kabi yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishga asoslanadi.

Hozirgi kunda mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ham ko'proq kuchga ega. Bunday sharoitda O'zbekiston xalqi "g'oyaga qarshi g'oya", "fikrga qarshi fikr", jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishishi mumkin. Bugun davlatimiz murakkab dunyo bilan aloqalarga kirishgan, kommunistik mafkura tarafdorlari ham eski hayotni qo'msab, qurollarini tashlaganlari yo'q[16]. Mamlakatimizga turli yo'llar bilan har xil siyosiy, diniy, madaniy oqimlar kirib kelmoqda va o'z ta'sirini kuchaytirmoqda. Keng hududda o'rta asrlarda mavjud bo'lgan musulmon xalifaligini tiklashga bo'layotgan maylliklar, Rossiya-Belorus ittifoqini "ibrat" qilib, umrini yashab bo'lgan sobiq sovet g'oyalarini qaytadan tiklash yo'lidagi urinishlar, shuningdek, o'zbek xalqining tarixini soxtalashtirish harakatlari hozirgi mafkuraviy tahdidlarning xavfli ko'rinishlaridan ayrimlaridir.

Hozirgi kunda ana shunday muammolar qatorida terrorchilik, diniy ekstremizm, aqidaparastlik jiddiy e'tiborni tortmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga asosanib, shuni ta'kidlash mumkinki, bugungi kunda dunyoda 500 dan ortiq terrorchilik tashkilotlari mavjuddir. Ular 60 ta davlat hududida o'z tarmoqlarini yoyishga muvaffaq bo'ldilar. Ayni davrda 84 ta davlat fuqarolariga qarshi terrorchilik harakatlarini amalga oshirmoqdalar [17]. Mutaxassislar fikricha, jahonning turli mamlakatlarida sodir etilgan qo'poruvchilik harakatlarining 47 foizi - portlash (ulardan 13,7 foizi bombalar yordamida), 7,4 foizi - qotillik, 7,5 foizi - fuqarolarni o'g'irlash, 5,5 foizi - qurolli tajovuzlar orqali amalga oshirilgan ekan.

"Har qanday tajovuz, - deydi I.A. Karimov, - va terrorchilik xurujlarining oldini olish, ularning mafkuraviy zaminini yo'qotish va avvalo, yoshlarimizning qalbi va ongi, sog'lom tafakkuri uchun kurashni taqozo etmoqda"[18; 266-267-b]. Xalqaro diniy ekstremistik guruhlarining asosiy maqsadi - o'tish davrining tabiiy qiyinchiliklaridan foydalanib, mavjud hukumatga qarshi harakat qilish, shu bilan birga o'zlari Islom dushmanlari deb bilgan davlat arboblari hamda fuqarolarga qarshi jismoniy zo'ravonliklarni o'tkazishdir.

Demak, hozirgi kunda davlatimiz kelajagi haqida qayg'urayotgan har bir inson chet eldan keltirilayotgan moddiy va ma'naviy afyun bilan xalqlarimizni, ayniqsa, yoshlarimizni jismoniy va ruhiy jihatdan zaharlantirishga befarq qaramasligi lozim. Buning uchun nima qilish kerak? Ma'muriy yo'l bilan qonun chiqarib, ushbu holatlarni to'xtatib bo'lmaydi. Demak, biz begona, beqarorlashtiruvchi "mafkuraga - milliy istiqlol mafkuramizni", "jismoniy azob va qon to'kilishlarga - mehr- muruvvat", "diyonatsizlikka - ruhiy poklik", "behayolikka - kamtarinlik", "bema'nilikka - ma'naviy boylik", boshqacha aytganda, xalqimizning ko'p asrlik taraqqiyoti davomida yaratilgan Sharqona axloq-odob qoidalarini, yuksak ma'naviyat va boy madaniyatimizni, qadriyatlarimizni qalqon qilib qo'yishimiz kerak. Biz ma'naviy xavfsizlik haqida qayg'urar ekanmiz, eng avvalo, fuqarolarda yuksak ma'naviyatni shakllantirishning ahamiyati qanchalik baland ekanligini tushunish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.Mirziyoyev aytganidek: "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan." [19]. Negaki, ma'naviyati yuksak darajada rivojlangan yoshlar, xalq va millat taraqqiy etadi, kelajakka ishonch bilan qadam tashlaydi. Aksincha, ma'naviy jihatdan qashshoq bo'lgan mamlakat tanazzulga yuz tutadi.

Jamiyatning ma'naviy xavfsizligini ta'minlash uchun yuksak ma'naviyatni shakllantirish, o'tmishga hurmat ko'rsatish, Sharqona qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish, yoshlarda vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixorni o'stirish, milliy istiqlol g'oyasining tarbiyaviy ahamiyatini oshirish zarur.

Globallashuv jarayonlari yoshlar ma'naviy hayotiga keng ko'lamli ta'sir ko'rsatmoqda. Internet, madaniyatlararo aloqalar, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va global madaniyat yoshlarning dunyoqarashini o'zgartirmoqda. Bu jarayonda

milliy qadriyatlarni saqlash va targ'ib qilish orqali globallashuvning salbiy ta'sirlarini yumshatish mumkin.

Milliy ma'naviyatni mustahkamlash va yoshlarning milliy o'zligini anglashini ta'minlash uchun zamonaviy texnologiyalar va yondashuvlardan foydalanish muhim. Kelajakda bu yo'nalishda yanada chuqurroq ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishi lozim. Bu orqali milliy merosning boyitilishi va saqlanishi ta'minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, milliy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanish hamda ilmiy izlanishlarni kuchaytirish orqali jamiyatning ma'naviy xavfsizligini ta'minlash mumkin.

Адабиётлар/Литература/References:

1. SH.Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida so'zlagan nutqidan. 12.01.2024 <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/12/armed-forces/>
2. Xajiyeva.M.S "Globallashuv asoslari" darslik, Toshkent: 2020.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Тошкент: "O'zbekiston" нашриёти. 2017
4. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: "O'zbekiston" нашриёти. 2021
5. Гринин Л.Е. Глобализация и национальный суверенитет./История и современность. – М.: №1. 2005
6. Очилдиев А. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар. – Тошкент: "Муҳаррир" нашриёти, 2009
7. Малашия Г. Тенденция гуманизации и дегуманизации экономики. – СПб.: Петрополис, 2001
8. "Глобаллашув, миллий ғоя ва мафкура: муаммолар, ечимлар, истиқболлар." Тошкент: фалсафа ҳуқуқ институти, 2009
9. Глобаллашув, оммавий маданият, миллий ғоя: мақолалар тўплами. – Тошкент: Маънавият, 2009.
10. Умаров Б., Жабборов Ш. Глобаллашув ва ёшлар тарбияси. – Тошкент: Академия, 2011.
11. Тошбоев О. Глобаллашув ва миллий маданият // Тафаккур. - Тошкент, 2006. - № 1
12. Миллий истиқлол ғояси / Масъул муҳаррир И.Эргашев. -Т.: Академия. 2005.
13. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: "O'zbekiston" нашриёти. 2021.
14. <https://lex.uz/uz/docs/-6678312>
15. Mirziyoyev.SH "Ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi videoselektordagi nutqidan.2017. <https://kun.uz/12873628?q=%2F12873628>
16. Комилов Н. Миллий мафкура халқни ва жамиятни бирлаштирувчи кучдир // Ўзбекистон овози.- 1998.-18 июнь.
17. Жумаев Р. Давлат ва жамият: демократлаштириш йулида.-Т.: Шарк, 1998.
18. Каримов И.А. Ватанимиз тинчлиги ва хавфсизлиги уз куч-кудратимизга халкимизнинг ҳамжихатлиги ва букилмас иродасига боғлиқ.// Тинчлик ва хавфсизлигимиз уз куч- кудратимизга, ҳамжихатлигимиз ва катъий иродаимизга бўлиқ..12-жилд.-Т.: Ўзбекистон, 2004
19. Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 78-umumta'lim maktabida so'zlagan nutqidan. 2017. <https://uza.uz/posts/70440>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/5 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).